# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 12-dekabr, № 257 (8880) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## IKKI TOMONLAMA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin 11-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqotda O‘zbekiston – Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish hamda mustahkamlashning dolzarb masalalarini muhokama qildilar.**

Rossiya Prezidentining joriy yil may oyida O‘zbekistonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni yetakchilar tomonidan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” asosida amalga oshirish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Kuni kecha Moskva shahrida o‘tgan Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo qo‘shma komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi va ikki tomonlama muzokaralarning natijalari yuqori baholandi.

O‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari o‘sishini ta’minlash, sanoat, energetika, transport, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalarini jadallashtirish, O‘zbekiston va Rossiya hududlari hamda ishbilarmon tashkilotlari darajasida faol muloqotlarni davom ettirishga qaratilgan o‘zaro muvofiqlashtirilgan choralar ko‘rish muhimligi ta’kidlandi.

Innovatsiyalar, sun’iy intellekt, ta’lim va tibbiyot sohalarida hamkorlik kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Noyabr oyida Rossiyada O‘zbekiston madaniyati kunlari doirasidagi tadbirlar muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Xalqaro kun tartibidagi masalalar hamda joriy yil dekabr oyi oxirida bo‘lib o‘tadigan oliy darajadagi uchrashuvlarga tayyorgarlik ko‘rish nuqtayi nazaridan mintaqaviy tashkilotlardagi ko‘p tomonlama hamkorlik yuzasidan ham fikr almashildi.

## BUNYODKORLIK JARAYONIDA YASHIL HUDUDLARNI KENGAYTIRISHGA E’TIBOR QARATILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 11-dekabr kuni qurilish va obodonlashtirish loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.**

Zamon rivojlangani sari odamlarning ta’bi ham, talabi ham o‘sib bormoqda. Shunga yarasha yangi qurilishlarga, munosib sharoitlarga ehtiyoj tug‘ilmoqda.

Toshkent shahridagi Yunusobod dehqon bozori hamisha gavjum, kengayishga esa joy yo‘q. Yana bir muammo – tirbandlik. Shu bois uni zamonaviy konsepsiya asosida yuqoriga “o‘stirish”, savdo o‘rinlari va qulayliklarni ko‘paytirish rejalashtirilgan. Loyihaga ko‘ra, avvalo, asliyat saqlab qolinib, hozirgisining o‘rnida uch qavatli ekobozor quriladi. Uning yonida qo‘shimcha savdo markazi hamda zargarlik uyi barpo etiladi. Eng muhimi, ushbu binolarning yer osti qismi mingdan oshiq avtomobillar sig‘adigan turargoh bo‘ladi. Jami 4-5 ming ish o‘rni ochiladi.

Mutasaddilarga bular sababli bozor faoliyatini to‘xtatib qo‘ymaslik, qurilishni bosqichma-bosqich amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Keyingi loyihalar istirohat bog‘larini obodonlashtirish va yangilarini qurishga oid. Poytaxtimizdagi Abdulla Qodiriy bog‘i obodonlashtiriladi. Relyefdan to‘g‘ri foydalanib, yashil hududlar ko‘paytiriladi. Sayr va tomosha joylari, favvoralar, yangi planetariy quriladi. Sayyohlarni jalb qilish uchun gastro-xol tashkil etiladi. Bu Chorsu bozori, umuman, eski shahar bilan yanada uyg‘un bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari bog‘da sharoitlarni yaxshilash va an’analarni aks ettirish zarurligini ta’kidladi.

– Bu rejalar yaxshi. Faqat milliy ruh qo‘shish kerak. Bu yerda shaharning tarixi, xalqimizning an’analari aks etsin. Har bir yosh toifasidagi inson bog‘da o‘z joyini topa olsin, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

“Do‘stlik” bog‘i ham yangilanib, aholini o‘ziga jalb etuvchi maskanga aylantiriladi. Sayr yo‘laklari, suv havzalari, dam olish joylari ta’mirlanib, o‘rindiqlar o‘rnatiladi. Oilaviy ko‘ngil-ochar maskan va bolalar ijod markazi tashkil qilinadi. Yoshlar uchun skeyt maydonchasi, daraxtlar bilan uyg‘un aviariy hamda tomosha charxpalagi quriladi.

Ma’lumki, shu yerda Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi joylashgan. Uning ortidagi maydonda yurtimizdagi milliy madaniyat markazlarining pavilyonlarini barpo etish rejalashtirilgan. Ular har bir millatning uyi shaklida bo‘lib, o‘ziga xos madaniyat va an’analarni ifodalaydi. Bu hudud “Do‘stlik” bog‘i bilan hamohanglik kasb etadi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2019-yilda Toshkent shahrida “Navro‘z” bog‘i barpo etilgan edi. Hozirgi kunda u shahar markazidagi obod va gavjum maskanlardan biri. Tashrif buyuruvchilarga sharoitlarni yanada kengaytirish maqsadida bu yerda mehmonxona, yopiq sport maydonchasi, restoran, konferensiya zali bunyod qilish ko‘zda tutilmoqda.

Mamlakatimizda hududlarni kompleks rivojlantirish doirasida barcha joylarda yangi mavzelar, parklar, ko‘ngilochar maskanlar qurilmoqda. Jumladan, Nurafshon va Namangan shaharlarida ham “Yangi O‘zbekiston” bog‘lari barpo etilgan. Navbatdagi loyihalar ulardan foydalanish samaradorligini oshirish va mehmonlarni ko‘proq jalb etishga qaratilgan.

Buning uchun Nurafshon va Namangandagi “Yangi O‘zbekiston” bog‘lari yonida turizm markazlari tashkil qilinadi. Ularda Sharq bozori, hunarmandchilik joylari, amfiteatr, favvora va boshqa qurilmalar bo‘ladi. Daraxtlar ekilib, yashil hudud kengaytiriladi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni sifatli qilish, bog‘larda aholi va turistlar uchun qulay sharoitlarni yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

**O‘zA.**

**Tadbir**

## FARZANDLAR MANFAATLARI ISHONCHLI HIMOYADA

*Poytaxtimizda O‘zbekistonning BMT Bolalar jamg‘armasi (UNICEF) bilan hamkorligining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi.*

Unda Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva ishtirok etib, ulg‘ayib borayotgan avlod manfaatlari yo‘lida birgalikda ishlarni davom ettirish muhimligini ta’kidladi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar o‘ttiz yillik hamkorlik davomida bolalarning hayot sifatini yaxshilash, ta’lim va tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, shuningdek, ularni zo‘ravonlik va kamsitishning barcha shaklidan himoya qilishga qaratilgan ko‘plab loyihalar ijrosini e’tirof etdi.

UNICEF kompleks dasturlarni amalga oshirish uchun texnik yordam va resurslar taqdim etish, O‘zbekistonning bolalar uchun qulay muhit yaratish borasidagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu hamkorlik mamlakatimizda bolalar huquqlari sohasida xalqaro standartlarni ilgari surish, jumladan, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini hayotga tatbiq etishda muhim omil bo‘ldi.

Bolalarning huquq va manfaatlarini ta’minlashning huquqiy va institutsional asoslari izchil takomillashtirilmoqda. Keyingi yillarda yosh avlodni himoya qilish, ularning farovonligini ta’minlash va barkamol rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qator muhim qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Shu yil noyabr oyida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunni imzoladi. Bu bolalar huquqlarini himoya qilish milliy tizimini mustahkamlashda muhim bosqich bo‘ldi.

Tadbirda qayd etilganidek, mamlakatda inklyuziv ta’lim tizimi ham faol rivojlanmoqda, sog‘liqni saqlash, bolalarni ijtimoiy himoya qilish va o‘qitish sohasida keng ko‘lamli dasturlar amalga oshirilmoqda.

UNICEF bilan hamkorlik sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, ta’lim kabi boshqa muhim yo‘nalishlarda davom ettiriladi. Har bir bolaga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkonini beradigan xavfsiz, sog‘lom va farovon muhit yaratishga alohida e’tibor qaratiladi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Seminar**

## TA’SIRCHAN MEXANIZMLAR TATBIQI

*Oliy Majlis Senatida xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari raislari hamda kotibiyat mudirlari uchun mahalliy Kengashlar faoliyatining rivojlanishi,mahalliy ijro etuvchi va vakillik hokimiyatining bo‘linishi prinsipi bo‘yicha konstitutsiyaviy normalarning joriy etilishi hamda sohaga oid islohotlar yuzasidan seminar bo‘lib o‘tmoqda.*



Seminarda Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva mamlakatimizda barcha sohada amalga oshirilayotgan islohotlar singari mahalliy Kengashlarning jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirish, deputatlarning mahalliy ijro organlari bilan samarali muloqotini yo‘lga qo‘yish, ularning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda aholi manfaatlarini himoya qilishdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilayotganini ta’kidladi.

Shuningdek, Oliy Majlis palatalarining majlislarida davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalarga va bu borada vakillik organlarining roliga to‘xtalib o‘tdi. Mahalliy Kengashlar va deputatlar faoliyatini samarali tashkil etish, saylovchilar bilan ishlash, aholi muammolarini o‘rganish va hal etishda “mahalla yettiligi” va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalariga ham e’tibor qaratildi.

Seminar davomida mahalliy byudjetlarni shakllantirish, qonunlar ijrosini ta’minlash hamda hududiy dasturlar bajarilishini nazorat qilish, ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining hisobot va axborotlarini eshitishning ta’sirchan mexanizmlarini tatbiq etish masalalariga urg‘u berildi.

Tadbirda Senat qo‘mitalari, Senat devonining tarkibiy bo‘linmalari, vazirlik va idoralar vakillari mahalliy Kengashlar va ular organlarining faoliyati samaradorligini oshirish, qarorlar qabul qilishda ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylikni ta’minlash, shuningdek, keng jamoatchilik fikrini inobatga olish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

**“Xalq so‘zi”.**

**E’tirof**

## O‘ZBEKISTON TASHABBUSLARI YUKSAK BAHOLANDI

*Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Xorvatiya Respublikasi tashqi va Yevropa ishlari vaziri Gordan Grlich Radman boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.*

Muloqot avvalida mehmonga joriy yil 27-oktabr kuni o‘tkazilgan parlament saylovi natijalari, yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida shakllangan parlament faoliyati, shuningdek, gender tenglikni yanada mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida batafsil ma’lumot berildi.

Gordan Grlich Radman Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatda barcha sohada amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, ayniqsa, O‘zbekiston yetakchisining ikki tomonlama munosabatlarni faollashtirish borasidagi tashabbuslarini yuqori baholadi.

Shuningdek, G. Radman parlamentlararo aloqalarni rivojlantirishga alohida urg‘u berib, kelgusi yili Toshkentda o‘tkaziladigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-sessiyasida



Xorvatiya parlamentariylari ham ishtirok etishi, tadbir davomida ikki davlat vakillari qator muhim uchrashuvlar o‘tkazish orqali hamkorlikni yanada jonlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’kidladi.

Konstruktiv va o‘zaro ishonch ruhida kechgan uchrashuvda parlamentlararo hamkorlikni kengaytirish, aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishda “do‘stlik guruhlari” imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozimligi urg‘ulandi.

Uchrashuv samimiy, ochiq va do‘stona ruhda o‘tdi.

**“Xalq so‘zi”.**

## TARMOQLARARO SANOAT YARMARKASI

*Poytaxtimizdagi “O‘zekspomarkaz” Milliy ko‘rgazma majmuasida respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi bo‘lib o‘tmoqda.*

**Ko‘rgazma**



Vazirlar Mahkamasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Toshkent shahar hokimligi hamkorligida tashkil etilgan ushbu yarmarkada 4 600 dan ziyod korxonalar qatnashib, 6 mingdan ko‘p turdagi mahsulotlar namoyish etilyapti.

Sanoat yarmarkasi mamlakatimiz ichki iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, kichik hamda o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlardagi pozitsiyalarini mustahkamlashga qaratilgan strategik yo‘nalishini yaqqol aks ettiradi.

Quvonarlisi, tadbirda imkoniyati cheklangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlovchi korxonalar uchun ham ilk bor maxsus joy ajratilgan. Bu sektorda 40 tadan ziyod kompaniyalar 350 dan ortiq mahsulotlarini namoyish etayotir.

Yarmarka doirasida o‘tayotgan “B2B” va “G2B” formatdagi muzokaralar esa ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik shartnomalarini tuzish imkoniyatini yaratyapti. Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra 2 700 ga yaqin kelishuvlar imzolanishi kutilmoqda.

Ishbilarmon doira vakillarini bir joyga jamlagan ushbu yarmarka 13-dekabrgacha davom etadi.

**“Xalq so‘zi”.**



**Oliy Majlis Qonunchilik palatasida**

## AHOLI HUQUQ VA ERKINLIKLARI MUHOFAZASI

### qabul qilinayotgan qonun loyihalarida aks etmoqda

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid, jumladan, sudlar faoliyati samaradorligini oshirish, yo‘llarda harakatlanish xavfsizligini ta’minlash, jamoat transportidan foydalanish, kredit sohasidagi munosabatlarni takomillashtirish, zargarlik sanoatini yanada rivojlantirish, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, qurilish tashkilotlarining mas’uliyatini kuchaytirishga qaratilgan bir qator qonun loyihalari ko‘rib chiqildi.*

*Qizg‘in muhokamalar jarayonida konstruktiv fikrlar bildirildi, asosli takliflar ilgari surildi. Deputatlar har bir masalaga jiddiy va daxldorlik hissi bilan yondashdi.*

3



Xalqaro konferensiya

# ILG‘OR TAJRIBALAR ALMASHINUVI

*Oliy Majlis Senatining Yoshlar,xotin-qizlar,madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi Orzigul Qozixonova Boku shahrida Ozarbayjon parlamenti tashkil topganining 106-yilligiga bag‘ishlangan “Parlamentarizm: an’analar va istiqbollar” mavzuidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etdi.*

13 ta davlatdan 100 ga yaqin parlamentariylar va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etgan konferensiyada parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish, qonunchilik jarayonlarini takomillashtirish, demokratik qadriyatlarni ilgari surish, inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta’minlashda parlamentlarning rolini mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik barcha sohada, jumladan, parlamentlararo muloqot jadal rivojlanib borayotgani ta’kidlandi. Yurtimizda yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida ilk bor o‘tkazilgan parlament saylovining ahamiyati, davlat boshqaruvi tizimida parlamentning rolini kuchaytirishga qaratilgan islohotlarga e’tibor berildi.

Konferensiya yakunida parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash, tajriba almashish va muhim sohalarda qo‘shma loyihalarni rivojlantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

Tashrif doirasida Ozarbayjon Milliy Mejlisi Yoshlar va sport masalalari qo‘mitasi raisi Sh. Ismailov, “Ozarbayjon – O‘zbekiston” parlamentlararo do‘stlik guruhi a’zosi, Milliy Mejlis deputati J. Pashazade bilan uchrashuvlar o‘tkazildi.

Unda ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish hamda sportni rivojlantirish borasida tashabbuslarni ilgari surish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, ikki mamlakat parlamentlarining yangilangan tarkibi asosida tuzilgan do‘stlik guruhlari faoliyatini kuchaytirish, parlamentlararo hamkorlikni yanada chuqurlashtirish yuzasidan fikr almashildi.

Oliy Majlis Senatida

# “BOLALAR HARAKATI” SARDORLARI BILAN MULOQOT

*Oliy Majlis Senatida O‘zbekiston bolalar tashkilotining “Bolalar harakati” sardorlari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.*

Senatning Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi Orzigul Qozixonova, senator Malika Qodirxonova hududlardan kelgan eng ilg‘or va tashabbuskor bolalarga Senat faoliyatidagi yangiliklar, qo‘mita faoliyati hamda Yoshlar parlamenti haqida ma’lumot berdi.

Unda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning oila, ta’lim, yoshlar va bolalar masalalariga oid normalariga ham e’tibor qaratildi. Ochiq muloqot davomida yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javoblar oldi. Sardorlarning qo‘mita bilan istiqboldagi hamkorlik borasidagi takliflari ham eshitildi.

Uchrashuv yakunida ishtirokchilar Senat binosi bilan tanishdi.

**“Xalq so‘zi”.**

“Tashabbusli byudjet”:

# FAROVONLIKKA YO‘NALTIRILGAN LOYIHALAR

*Mamlakatimizda 2019-yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan “Tashabbusli byudjet” jarayonlari mazkur sohaning insonlar hayotidagi o‘rni qanchalik dolzarbligini,jamiyatimizdagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim dastak sifatida xizmat qilishini yana bir bor isbotlab berdi.*

## Sarhisob

2024-yil sarhisobiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, joriy yilda an’anaga muvofiq “Tashabbusli byudjet” ikki mavsum doirasida, yanvar-fevral hamda iyul-avgust oylarida o‘tkazildi. Jarayonni yanada takomillashtirish hamda ovoz berish bosqichini optimallashtirish, majburiy ovoz berish holatlarini kamaytirish maqsadida qator yangiliklar hamda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratildi.



Jumladan, birinchi mavsumdan boshlab “Bir fuqaro – bir ovoz” tamoyili joriy etildi. “Mening yo‘lim” loyihasi “Tashabbusli byudjet” jarayonining birinchi mavsumi bilan qo‘shib o‘tkazilishi belgilandi. Ikkinchi mavsumdan majburiy ovoz berishga jalb etish hamda ovozlarni sotib olish holatlarini kamaytirish maqsadida ovoz berish bosqichi 10 kunga kamaytirildi.

Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari vakolatini kengaytirish maqsadida ularga tuman (shahar) byudjeti qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan qo‘shimcha g‘oliblarni e’lon qilish hamda majburiy ovoz to‘plangan loyihalarni bekor qilish vakolati berildi. Shu bilan birga, joriy yilda “Tashabbusli byudjet” jarayonlari uchun ajratilgan mablag‘lar hajmi 2023-yildagiga nisbatan 1,2 trln. so‘m yoki 26 foiz oshib, umumiy ajratilgan mablag‘lar miqdori 5,7 trln. so‘mni tashkil etdi.

Ikki mavsum davomida “Ochiq byudjet” portaliga fuqarolar tomonidan jami 63 mingdan ortiq loyihalar kelib tushdi. Shundan hududiy ishchi komissiyalar tomonidan mazkur loyihalarning 52 mingdan ortig‘i yoki 83 foizi ovoz berish bosqichiga o‘tkazildi. Rad etilgan loyihalarning aksariyat qismi amalga oshirishning texnik imkoni mavjud bo‘lmagan hamda qiymati 1,3 mln. so‘mdan oshiq loyihalarni tashkil etgan.

Ovozga qo‘yilgan loyihalarning 20 mingida (39 foiz) ichki yo‘llarni ta’mirlash, 7,3 mingida (14 foiz) ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish, 6,8 mingida (13 foiz) maktablarni ta’mirlash va jihozlash tashabbuslari ilgari surilgan. Ovoz berish bosqichida fuqarolar tomonidan 20 mln.dan ortiq ovoz qayd etildi. Jumladan, birinchi mavsumda 11 mln. hamda ikkinchi mavsumda 9 mln. fuqaro ovoz berishda qatnashdi. Yakunlarga ko‘ra umumiy qiymati 5,6 trln. so‘mlik 4 768 ta loyiha g‘olib topildi. Ushbu loyihalar uchun fuqarolar tomonidan 16 mln.-dan ko‘p ovoz berildi. Bunda joriy yilda ajratilgan mablag‘lar hajmi oshishi hisobiga bir tuman yoki shaharda g‘olib loyihalar soni 2023-yildagiga nisbatan o‘rtacha 6-8 tadan 13–15 tagacha o‘sishi qayd etildi.

Ta’kidlash joizki, amaldagi tartibga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan o‘zlariga berilgan vakolatdan foydalangan holda tuman (shahar) byudjetlarining qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan 56 ta loyiha uchun qo‘shimcha ravishda mablag‘ ajratilib, g‘olib sifatida e’lon qilindi.

G‘olib bo‘lgan loyihalarning aksariyatida ichki yo‘llarni ta’mirlash, maktablarni rekonstruksiya qilish va jihozlash tashabbuslari aks etgan. Ular doirasida mavjud mahallalarning 32 foizida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar amalga oshirilishiga erishildi.

Raqamlardan ham ko‘rinib turibdiki, “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimiz farovonligini yanada oshirish, mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishda fuqarolarning jarayonlarga qiziqishi va ijobiy yondashuvlarini qo‘llab-quvvatlash, ular manfaatlarini har tomonlama himoyalash ustuvor vazifalarimizdan hisoblanadi.

**Kobul TURSUNOV,**
**Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi o‘rinbosari.**

# O‘zbekiston – MDH davlatlarida turizm yo‘nalishida g‘olib

*Moskva shahrida “Russian Traveler Awards 2024” milliy turizm mukofotini topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.*

*Tanlov natijalariga ko‘ra Rossiyaning “Russian traveler” jurnali tomonidan tashkil etilgan “Russian Traveler Awards 2024” milliy turizm mukofotining ekspert hakamlar hay’ati O‘zbekistonni “MDH mamlakatlarida turizm” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olib deb topdi.*

## Biz va jahon

Taqdirlash marosimida Turizm qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari Jamshid Abdusalomov boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi ishtirok etdi.

Ovoz berish natijasida sayohat olamidagi barcha eng yaxshi jihatlar – diqqatga sazovor joylar va marshrutlardan tortib an’analar va bayramlargacha aniqlanadi hamda Rossiyaning turistik xaritasiga kiritiladi.

“Russian traveler” jurnali – bu mamlakat bo‘ylab sayohat qilish va mashhur xalqaro yo‘nalishlarga bag‘ishlangan bosma nashr sanaladi. Jurnal o‘z mushtariylariga sayohat g‘oyalari, ekspert maslahatlari va fotosuratlar bilan bezatilgan maqolalarni taklif qiladi. Mazkur nashrning birinchi soni 2022-yilda Sankt-Peterburg xalqaro iqtisodiy forumida taqdim etilgan.

Jurnal, shuningdek, Rossiyadagi eng yaxshi yo‘nalishlar, mehmonxonalar, kruizlar va turizmning boshqa jihatlarini e’tirof etuvchi an’anaviy “Russian Traveller Awards” mukofotini ham tashkil qiladi.

2024-yil iyul oyida O‘zbekiston elchixonasi “Russian Traveler” nashri bilan birgalikda Rossiyaning “O‘zbekiston – Sharq ertagi” jurnalining yurtimiz sayyohlik salohiyatiga bag‘ishlangan maxsus sonini chop etdi. Mazkur maxsus son rossiyalik mushtariylarda katta qiziqish uyg‘otdi.

**“Dunyo” AA.**
Moskva

# Sel-suv ombori barpo etiladi

*Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi Toshtepa sel-suv omborining barpo qilinishi mazkur hududdagi sug‘orish tizimlarini yaxshilash va suv resurslaridan samarali foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

## Qulaylik

Qishloq xo‘jaligi vaziri I. Abdurahmonov mazkur manzilda bo‘lib, loyiha xususida so‘z yuritar ekan suv omborining qurilishi, birinchi navbatda, Ohangaron hamda uning hududidagi fermer va dehqon xo‘jaliklarini suv bilan ta’minlab, natijada yuqori hosildorlikka erishish mumkinligini ta’kidladi.

Vazir tomonidan ushbu hududlarda rezavor mevalar (qulupnay, malina, smorodina) yetishtirishni yo‘lga qo‘yish, zamonaviy agrotexnologiyalardan foydalanish taklif etildi. Hududdagi tuproq va iqlim sharoitlari bu ekinlarning samarali o‘sishi uchun qulay bo‘lib, yil davomida hosil olish imkonini beradi.

Dil so‘zi

# ILM-FAN YUTUQLARI SOHA RIVOJIGA XIZMAT QILADI

*Keyingi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim tarmog‘i – agrar sohani isloh etish,el dasturxoni to‘kinligini ta’minlash yo‘lida fidokorona mehnat qilayotgan qishloq xo‘jaligi xodimlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda.*



Shu ma’noda, Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni munosabati bilan davlatimiz rahbarining soha vakillariga yo‘llagan bayram tabrigi agrar yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlar, tadqiqotchilarga katta ishonch va rag‘bat bergani rost. Xususan, agrar sohani ilm-fan asosida rivojlantirishni tizimli yo‘lga qo‘yish, uning barcha tarmog‘idagi innovatsion faoliyatni integratsiyalash maqsadida kelgusi yil O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasini tashkil etish to‘g‘risidagi tashabbus zo‘r ko‘tarinkilik bilan kutib olindi. “Raqamli qishloq xo‘jaligi” yagona integratsion platformasini takomillashtirish bo‘yicha ilgari surilgan takliflar esa soha rivojida muhim o‘rin tutishi bilan e’tiborga molik.

Keyingi yillarda Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining Xorazm ilmiy-tajriba stansiyasida g‘o‘zaning tezpishar, viltga chidamli, tola chiqimi va sifati yuqori, andoza navlarga nisbatan 15 foiz ko‘p hosil beradigan, amal davri esa 110 – 115 kunni tashkil etadigan yangi navlarini yaratish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ilmiy-tajriba stansiyamiz seleksioner olimlari tomonidan yaratilgan 3 ta yangi g‘o‘za navi Davlat nav sinash komissiyasi sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tyapti.

Xorazm viloyatining tuproq va iqlim sharoitiga, suv tanqisligi hamda kasallik va zararkunandalarga chidamli, serhosil, ertapishar, yuqori tola sifatiga ega bo‘lgan 3 ta navga patent olindi.

Umuman, paxtachilikka ilm-fan yutuqlarini, innovatsiyalarni joriy etish borasida ilmiy-tajriba stansiyamiz olim va seleksionerlari tomonidan izchil izlanishlar olib borilmoqda. Maqsadimiz – kelgusida paxtachilikni yanada serdaromad, istiqbolli sohaga aylantirish.

Shukrki, bugun dehqonlarning “kosasi oqaradigan” payt keldi. Mamlakatimizda Qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasining tashkil etilishi bu boradagi izlanishlarimizni yanada jadallashtirish, ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish va fan yutuqlarini amaliyotga keng joriy qilish imkonini beradi.

**Ravshanbek KARIMOV,**
**Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining Xorazm ilmiy-tajriba stansiyasi direktori, qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori, viloyat Kengashi deputati.**

# TOMORQA – QUT-BARAKA MANBAI

*Prezidentimizning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga yo‘llagan tabrigida dehqon xo‘jaliklarini tashkil etish uchun 75 ming gektar yer maydonlari 180 ming nafardan ortiq ijtimoiy muhtoj aholi hamda yoshlarga bo‘lib berilgani va 200 mingdan ziyod ish o‘rinlari yaratilgani qishloqda bandlikni ta’minlash,real daromadlarni oshirish,kambag‘allikni qisqartirishda muhim rol o‘ynagani alohida ta’kidlangan.*



Haqiqatan ham, keyingi yillarda mamlakatimizning barcha hududida tomorqachilikda daromadni oshirish maqsadida “Bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili asosida ko‘pgina amaliy ishlar olib borilmoqda.

O‘zim o‘qituvchilik qilganman va nafaqaga chiqqach oilamiz bilan birgalikda tomorqadan samarali foydalanish, bog‘ yaratishga kirishdik.

Beruniy tumanining Birlik mahallasidagi 31 sotixli tomorqamizda pomidor, bodring, kartoshka, piyoz va turli ko‘katlar yetishtiramiz. Uning 2 sotix maydonida issiqxona tashkil etilganiga ham 5 yildan oshdi. Xullas, tomorqamizda yetishtirilgan mahsulotlarni nafaqat tuman, balki Nukus shahri bozorlarida ham sotishni yo‘lga qo‘yganmiz.

Oilamiz a’zolaridan tashqari yana uch nafar mahalladoshimizni mavsumiy ish bilan ta’minladik. Tomorqamizda undirilgan noz-ne’matlardan kam ta’minlangan oilalarga bepul yetkazib berish orqali ularning ham dasturxoni to‘kin bo‘lishiga hissa qo‘shyapmiz.

Sirasini aytganda, tomorqadan unumli foydalangan kishi, shubhasiz, baraka topadi. Mana, o‘zimizdan qiyos. Ro‘zg‘orimiz but, qilingan mehnat esa davlatimiz tomonidan e’tirof etilayotir. 2018-yilda “Namunali tomorqachi”, bu yilgi bayram arafasida esa “Qishloq xo‘jaligi fidoyisi” ko‘krak nishonlari bilan taqdirlandim.

Oilamiz a’zolari bilan qilayotgan mehnatimiz va topgan daromadimiz misolida “Tomorqa – daromad manbai”, degan hikmatli iboraning bejiz aytilmaganiga yana bir bor ishonchimiz ortdi. Masalan, har yili xarajatdan tashqari 40 – 45 million so‘m sof daromad olamiz. Peshona teri evaziga kelgan daromad orqasidan to‘y qilyapmiz, uy qurib, mashina olyapmiz. Asosiysi, mehnatdan qochmay tomorqadan unumli foydalanish nafaqat oila farovonligini oshirishga, balki bozorlar to‘kinligini ta’minlashga ham hissa qo‘shayotganini ko‘rish har qanday insonga faxr bag‘ishlaydi.

**Yo‘ldosh NARIMBETOV,**
**“Qishloq xo‘jaligi fidoyisi” ko‘krak nishoni sohibi.**
Beruniy tumani

YANGILIKLAR *xabarlar*

# TAFSILOTLAR

## Mirzo Ulug‘bek merosini o‘rganib…

*“Mirzo Ulug‘bek hayoti va ilmiy-ma’rifiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan eng yaxshi ilmiy maqolalar” tanlovi g‘oliblari aniqlandi.*



Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida tuzilgan ekspertlar guruhi tomonidan respublika bosqichiga taqdim etilgan maqolalar dastlabki ekspertizadan o‘tkazilib, belgilangan mezonlar asosida 100 ballik tizimda baholandi.

Uning natijalariga ko‘ra 1-o‘ringa Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi Shohina Mamayusupova, 2-o‘ringa Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi Sevinch Baxtiboyeva, 3-o‘ringa O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti talabasi Azizbek Ibodullayevning maqolalari munosib, deb topildi.

G‘oliblar sertifikat va pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

## Bayramga taraddud

*Yangi yil kirib kelishiga juda oz fursat qoldi. Mazkur bayram munosabati bilan joylarda o‘ziga xos dizaynda Yangi yil archasi bezatiladi.*



Xususan, poytaxtimizda bayram tantanalarini nishonlashga tayyorgarlik boshlab yuborildi. Ko‘plab maskanlarda bir-biridan ko‘rkam bayram archalari bezatilmoqda.

Toshkent shahar hokimligi matbuot xizmati xabarida aytilishicha, asosiy archa Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining old maydonida o‘rnatilib, 25-dekabr – 10-yanvar kunlari, soat 11:00 dan 23:00 gacha tashrif buyuruvchilarni qabul qiladi.

Shuningdek, poytaxtning yana o‘nlab manzillarida bayram tadbirlari o‘tkaziladi.

## 44 nafar o‘quvchi milliy sertifikatga ega bo‘ldi

*Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi 96-umumta’lim maktabi muallimi Dilnoza Berdiyeva tayyorlagan 44 nafar o‘quvchi hamda 2 nafar o‘qituvchi ona tili va adabiyot fanidan milliy sertifikatni qo‘lga kiritdi.*



Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xabariga ko‘ra ushbu imtihonda 6 ta A, 11 ta B+, 18 ta B, 9 ta C+, 3 ta C daraja qayd etilgan. Bu o‘quvchilar oliy ta’limga kirish imtihonlaridan sakkiz oy oldin ona tili fanidan beriladigan 40 ta savolning 40, 39, 38, 37, 36, kamida 35 tasiga to‘g‘ri javob balini naqd qilib qo‘ydi degani.

Ma’lumot uchun, D. Berdiyeva 2017-yili “Yilning eng yaxshi fan o‘qituvchisi” g‘olibi bo‘lgan.

**“Xalq so‘zi”.**

**Britaniyalik taniqli rassom Samira Mian Londonda o‘zbek naqsh san’ati maktabini tashkil qildi.**

# AHOLI HUQUQ VA ERKINLIKLARI MUHOFAZASI

## qabul qilinayotgan qonun loyihalarida aks etmoqda

1

### Sudlar faoliyatida samaradorlik muhim omil

Majlisda sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Amaldagi tartibga ko‘ra, Oliy sud raisining o‘rinbosarlari – tegishli sudlov hay’atlari raislari lavozimiga aniq yo‘nalish (ma’muriy, fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy) bo‘yicha saylanishi belgilangan. Oliy sud sudyalariga nisbatan esa aniq yo‘nalish bo‘yicha saylanish tartibi joriy qilinmagan. Bu esa sudyalarning o‘zini o‘zi boshqarish tamoyilini keng joriy etishga to‘sqinlik qilib, Oliy sud raisi o‘rinbosarlarini bir sudlov yo‘nalishidan boshqa bir sudlov yo‘nalishiga o‘tkazish (rotatsiya) imkonini bermaydi.

Shu bois qonun loyihasida “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 19-moddasiga Oliy sud tarkibining sudlov hay’atlari raislari bilan bog‘liq o‘zgartirish kiritish nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasi sudlar faoliyati samaradorligini oshirish, odil sudlov sifatini yuksaltirish, rahbar kadrlarni munosib sudlov yo‘nalishiga o‘tkazish (rotatsiya) imkoniyatini yaratish, shuningdek, mamlakatning xalqaro reytinglardagi nufuzini ko‘tarishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o‘qishda qabul qilindi.

### Yo‘lovchilar uchun qulay va xavfsiz sharoitlar yaratiladi

Yo‘llarda harakatlanish xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qonun loyihasi ham qizg‘in muhokamaga sabab bo‘ldi.

Mamlakatimizda yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlash, harakat ishtirokchilari uchun qulay va xavfsiz sharoitlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu qonun loyihasida transport vositalarini trotuarlardan, velosiped yo‘lkalaridan, yashil hudud maydonlaridan yurgizishning oldini olishga qaratilgan normalar belgilanmoqda. Shuningdek, aholi tomonidan noqonuniy ravishda yo‘lning qatnov qismiga to‘siqlar o‘rnatish yoki yo‘llarni to‘sib qo‘yish, transport vositalari va fuqarolarning harakatiga to‘sqinlik qilish holatlariga chek qo‘yish uchun javobgarlik choralari nazarda tutilyapti.

Majlisda qonun loyihasining dolzarbligiga e’tibor qaratilib, uning ayrim normalari yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar o‘rtaga tashlandi.

Qonun tashabbuskorlari yo‘llarda harakat ishtirokchilari xavfsizligini ta’minlash bugungi kunda muhim ekanini qayd etib, loyihani ikkinchi o‘qishga tayyorlashda deputatlar tomonidan ko‘tarilgan masalalar soha mutaxassislari bilan birgalikda o‘rganib chiqilishini ma’lum qildi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

### Munozaralarda qanday masalalar ko‘tarildi?

Majlisda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga jamoat transportidan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi birinchi o‘qishda konseptual jihatdan ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda aholiga sifatli avtotransport xizmati ko‘rsatish, transport tizimini rivojlantirish hamda jamoat transportiga ustuvorlik berish yo‘nalishida amaliy choralar ko‘rilmoqda. Xususan, avtobuslar soni so‘nggi ikki yilda 2 barobar oshirilib, ular uchun alohida yo‘laklar tashkil etildi. Avtobuslarning oraliq intervali 2 karra qisqarib, yo‘lovchilar soni 2 barobar ko‘paydi.

Lekin tirbandlik masalasi aholi uchun, ayniqsa, Toshkent shahrida eng dolzarb muammoga aylangan. So‘nggi 2-3 yilda Toshkent shahrida har kuni 7-9 ballik, ayrim vaqtlarda esa 10 ballgacha tirbandliklar kuzatilmoqda.

Amaldagi qonunchilikda jamoat transporti uchun alohida ajratilgan yo‘laklarda boshqa transport vositalarining harakatlanganligi uchun javobgarlik nazarda tutilmagan. Bu, o‘z navbatida, qatnov muntazamligi va jamoat transportining erkin harakatlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan jamoat transporti uchun alohida ajratilgan yo‘laklarda harakatlanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilash nazarda tutilyapti.

Majlisda qonun loyihasi qizg‘in muhokamaga sabab bo‘ldi. Jumladan, deputat Saydullo Azimov bugun amaliyotda uchrayotgan dolzarb muammolarga amaliy yechim sifatida ilgari surilayotgan qonun loyihasining zaruratiga to‘xtalib, bir qator savollarni o‘rtaga tashladi. Loyihada taklif etilayotgan moddaning birinchi qismida transport vositalari haydovchilarining jamoat transporti uchun ajratilgan yo‘laklarda harakatlanish qoidalarini buzishi jarimaga sabab bo‘lishi nazarda tutilayotganiga e’tibor qaratib, hozirgi amaldagi yo‘l harakati qoidalarida bu yerda ruxsat ko‘rsatilmagani, natijada esa transport vositalari haydovchilari yo‘lovchini tushirgan holatda ushbu huquqbuzarlikning subyekti bo‘lib qolayotgani va shu holatda loyihadagi norma qanday yechim bo‘la olishiga qiziqdi. Shuningdek, uchinchi qismda yondosh hududdan chiqib, jamoat transporti uchun alohida ajratilgan yo‘lakni bo‘shatgan holda yo‘lning qatnov qismiga o‘tayotgan transport vositalariga yo‘l bermaslik ham jarimaga sabab bo‘lishini, biroq yo‘l harakati qoidalarida aynan mana shu ustuvorlikni nazarda tutuvchi norma mavjud emasligini qayd etdi. Bu holatda ushbu javobgarlikning kiritilishi qanchalik to‘g‘ri va ertaga bu fuqarolarda norozilik keltirib chiqarmaydimi, degan savol o‘rtaga tashlandi.

Qonun tashabbuskorlari bu bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirib o‘tdi. Deputatlar ko‘targan ayrim masalalarni aniqlashtirish zarurligi muhokama jarayonida yanada yaqqol sezildi.

Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha normalar borligini ta’kidladi. Jumladan, 128-moddada haydovchilarning transport vositalarini piyodalar yo‘laklaridan yurgizishi, yo‘l belgilari va yo‘l harakatining boshqa qoidalari talablariga rioya etmasligi uchun javobgarlik belgilangan. Agar jamoat transporti uchun joy ajratilsa, transport vositalari kirishi taqiqlangan belgi qo‘yiladi. Demak, ushbu holatda javobgarlik bor. Bu bo‘yicha yana alohida norma bilan javobgarlik ko‘zda tutilayotgani transport haydovchilarining e’tiroziga sabab bo‘lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, qonun loyihasini pishiq-puxta ishlab chiqish, uni yuridik jihatdan to‘g‘ri tayyorlashga oid ko‘rsatmalar berildi. Qolaversa, qonun loyihasida liberallashtiradigan, imkon yaratadigan normalarni ko‘proq aks ettirish bo‘yicha takliflar bildirildi.

“Milliy tiklanish” DP fraksiyasi rahbari Alisher Qodirovning ta’kidlashicha, jamoat transportining tartibli harakatlanishi uchun sharoit yaratib bera olmas ekanmiz, aholini rozi qilolmaymiz. Alohida yo‘lak ajratish masalasi butun dunyoda bor tajriba va bu muvaffaqiyat bilan ishlayapti. Yo‘lning maxsus bo‘lagi bilan jamoat transportini aholiga xizmat qilishi uchun belgilangan vaqtda, belgilangan tezlikda yurish imkoniyatini yaratib berish kerak. Bu tirbandlik bilan bog‘liq narsa emas. Balki jamoatchilikka to‘g‘ri xizmat qilish uchun tatbiq etilmoqda.

Qonun loyihasiga mas’ul qo‘mita raisi Jahongir Shirinov qonun loyihasi kamchiliklardan xoli emasligini, shu bilan birga, g‘oyasi va konsepsiyasi juda dolzarbligini qayd etib, ko‘tarilgan masalalar loyihani ikkinchi o‘qishga tayyorlashda ko‘rib chiqilishini aytib o‘tdi.

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

### Faktoring xizmatlarini ko‘rsatish kengayadi

Majlisda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (faktoring) munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi atroflicha muhokama qilindi.

Bugungi kunda pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (faktoring) operatsiyalarini tartibga soluvchi asosiy normalar Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solib kelinmoqda.

Biroq amaldagi normalar faktoring munosabatlarini amalga oshirish va tartibga solish yuzasidan mazkur sohaning rivojlanishiga to‘sqinlik qilyapti. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakat moliya bozorida faqatgina faktoring faoliyati bilan shug‘ullanuvchi alohida moliya institutining mavjud emasligi tadbirkorlar va investorlar tomonidan faktoring bozoriga investitsiya kiritilmayotganiga sabab bo‘lmoqda.

Shu munosabat bilan O‘zbekistonda faktoring munosabatlarini rivojlantirish maqsadida qonun hujjatlari, xususan, Fuqarolik kodeksiga va boshqa qonun hujjatlariga xalqaro tajribadan kelib chiqib, bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish ko‘zda tutilmoqda.

Majlisda deputatlar mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi O‘zbekistonda faktoring munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari normalari xalqaro tajribaga muvofiqlashtirilib, faktoring xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilishiga xizmat qilishini ta’kidlab o‘tdilar.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda konseptual jihatdan qabul qilindi.

### Onlayn firibgarlikning oldi olinadi

Deputatlar tomonidan kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda konseptual jihatdan ko‘rib chiqildi.

Keyingi vaqtda firibgarlik yo‘li bilan fuqarolarning xabarisiz kredit mablag‘larini ularning nomiga rasmiylashtirish va mazkur kredit mablag‘larini o‘zlashtirish holatlari ortib bormoqda. Bu kabi holatlar, o‘z navbatida, fuqarolar tomonidan ixtiyoriy ravishda kredit olishdan voz kechish mexanizmini joriy qilishni taqozo etmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan jismoniy shaxs o‘zining ishtirokisiz yoki xabarisiz kredit bitimini rasmiylashtirish bilan bog‘liq firibgarliklarning oldini olish maqsadida kredit byurosiga ariza kiritish orqali u bilan kredit bitimini tuzishni taqiqlashi mumkin bo‘ladi.

Majlisda deputatlar tomonidan mazkur qonun loyihasi firibgarlik yo‘li bilan fuqarolarning xabarisiz kreditlarni ularning nomiga rasmiylashtirish va mazkur kreditlarni o‘zlashtirish holatlarining oldini olishga, shuningdek, kredit byurolari faoliyatini tartibga solishni takomillashtirishga xizmat qilishi qayd etildi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

### Zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilarga soliq imtiyozlari beriladi

Zargarlik sanoatini yanada rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi ham muhokama markazida bo‘ldi.

Ushbu qonun loyihasida ayrim qonun hujjatlariga zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilarning qimmatbaho metallarga bo‘lgan talabini qondirish, ularning rivoji uchun qulay biznes muhitini yaratish va qonunchilikda mavjud byurokratik to‘siqlarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklif etilmoqda. Xususan, loyiha bilan 2027-yil 1-sentabrga qadar “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasiga a’zo bo‘lgan zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarni mol-mulk va yer solig‘idan ozod qilish belgilanmoqda.

Shuningdek, affinaj korxonalar (tarkibida qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bo‘lgan xomashyo bilan ishlash faoliyatini litsenziya asosida amalga oshiruvchi korxonalar)ga qimmatbaho metallarni zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchilar uchun qulay shakl va miqdorlarga keltirgan holda sotish hamda qimmatbaho metallardan suvenir tangalar tayyorlash va realizatsiya qilish huquqini berish nazarda tutilyapti.

Zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchilarga ham, o‘z navbatida, o‘zlari yasagan zargarlik buyumlarining xomaki mahsulotlarini boshqa ishlab chiqaruvchilarga realizatsiya qilish huquqi berilmoqda. Bundan tashqari, yuridik va jismoniy shaxslardan qimmatbaho metallarni va zargarlik buyumlarini sotib olish faoliyati vakolatli organni xabardor etish tartibida amalga oshirishi belgilanyapti.

Shu bilan birga, qonun loyihasi bilan xorijda ishlab chiqarilgan qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlarni bojxona to‘lovlari to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlarsiz sotuvga qo‘yish hamda chakana savdoda realizatsiya qilish taqiqlanmoqda.

Muhokama davomida deputatlarning ayrim normalar yuzasidan savollariga qonun tashabbuskorlari tomonidan atroflicha tushuntirishlar berildi.

Majlisda qonun loyihasi birinchi o‘qishda qabul qilindi.

### Yer resurslaridan foydalanish takomillashtiriladi

Majlisda ko‘rib chiqilgan navbatdagi hujjat – yer uchastkalaridan foydalanish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi bo‘ldi.

Unda ayrim qonun hujjatlariga yer uchastkalaridan ruxsat etilgan foydalanish turlarini joriy qilishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda. Yer kodeksi alohida bob bilan to‘ldirilib, unda yer uchastkalaridan ruxsat etilgan foydalanish tizimini joriy qilish, ularni belgilash va o‘zgartirish tartiblari aks etyapti.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga esa fuqarolar tomonidan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organga turarjoyga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish masalasi bo‘yicha o‘z vaqtida murojaat etmaganlik uchun jarimalarni yengillashtirishni nazarda tutuvchi qo‘shimcha norma kiritilyapti.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasi yer uchastkalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etishda yo‘l qo‘yiladigan harakatlarni aniqlash orqali yer resurslaridan oqilona foydalanishni tartibga solishga qaratilganini qayd etib, loyihadagi ayrim normalar bo‘yicha aniqlashtiruvchi savollarni o‘rtaga tashladi.

Tashabbuskorlar ko‘tarilgan barcha savollar yuzasidan atroflicha tushuntirish berib, bildirilgan qator taklif va tavsiyalar qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida e’tiborga olinishini ma’lum qildi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.



### Ommaviy tartibsizliklarni moliyalashtirganlik uchun javobgarlik belgilanmoqda

Majlisda “O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244-moddasiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ham obdan muhokama qilindi.

Odatda ommaviy tartibsizliklar mamlakatdagi tinchlikka putur yetkazuvchi, jamiyat osoyishtaligiga raxna soluvchi omil hisoblanadi. Shu sababli, ommaviy tartibsizliklar uyushtirish uchun maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan shaxslar jalb qilinib, bunday harakatlar keng moliyalashtirilyapti.

Amaldagi qonunchilikda ommaviy tartibsizliklar tashkil etganlik, ularda faol qatnashganlik va fuqarolarga nisbatan zo‘ravonlik qilishga omma oldida da’vat etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo‘lsa-da, biroq ommaviy tartibsizliklar sodir qilish maqsadida o‘quvdan o‘tganlik, ommaviy tartibsizliklarni tashkil etish bilan bog‘liq faoliyatni moliyalashtirganlik uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri javobgarlik mavjud emasdi.

Mazkur qonun loyihasi bilan Jinoyat kodeksining 244-moddasida ommaviy tartibsizliklar sodir etish maqsadida o‘quvdan o‘tganlik hamda ommaviy tartibsizliklarni moliyalashtirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash taklif qilinmoqda.

Ushbu qonun loyihasi mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

### Alkogol va tamaki bozori tartibga solinadi

Majlisda Bosh prokuror tomonidan kiritilgan “Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasining muhokamasi ham qizg‘in kechdi.

Mazkur qonun loyihasi bilan “Davlat boji to‘g‘risida”gi, “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi hamda “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi qonunlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish taklif etilmoqda.

Xususan, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qoshidagi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish inspeksiyasi etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda alkogol ulgurji savdosini litsenziyalovchi, pivo ichimliklarini ishlab chiqarish, pivo va tamaki ulgurji savdosi faoliyatida xabardor qilish tartib-taomillariga rioya etilishini nazorat qilish sohasidagi vakolatli organ sifatida belgilanyapti.

Shuningdek, iste’mol va texnik etil spirti, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish, alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi faoliyatiga berilgan litsenziya uchun yillik davlat bojini to‘lashning aniq muddatini belgilash ko‘zda tutilmoqda.

“Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi Qonun esa tamaki mahsulotlari ulgurji va chakana savdosi tegishli vakolatli davlat organlarini xabar qilgan holda amalga oshirilishi haqidagi norma bilan to‘ldirilmoqda.

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi uch o‘qishda qabul qilinib, Senatga yuborildi.

### Tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda qulaylik

Majlisda “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining $11^1$-moddasiga aktivlarni repatriatsiya qilish talablarini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish haqida”gi qonun loyihasi konseptual jihatdan ko‘rib chiqildi.

So‘nggi yillarda tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish va valyutani tartibga solishda bozor mexanizmlarini joriy etish orqali investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, tashqi savdo operatsiyalarida aktivlar repatriatsiya qilinishi bilan bog‘liq ayrim muammolar yuzaga kelmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan muddati o‘tgan debitorlik qarzdorlik uchun qo‘llaniladigan uch bosqichli jarima qo‘llash tartibi bekor qilinib, o‘rniga 20 foiz miqdorida bir martalik moliyaviy jarima qo‘llash tartibiga o‘tish taklif etilyapti. Bunda bitta tashqi savdo shartnomasi doirasida amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik summasi 10 foizdan oshgan taqdirda moliyaviy jarimani qo‘llash tarzidagi javobgarlikni yengillashtirish ko‘zda tutilyapti.

Qonun loyihasi investitsiya loyihalari doirasida tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda qulayliklar yaratish va aktivlar belgilangan muddatlarda repatriatsiya etilishini ta’minlashga qaratilgani inobatga olingan holda, deputatlar uni birinchi o‘qishda qabul qildi.

### Qurilish maydonlarida atmosfera havosi talablari buzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi

Majlisda atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, qurilish tashkilotlarining mas’uliyatini oshirishga qaratilgan qonun loyihasi ham atroflicha muhokama qilindi.

Bugungi kunda qurilish va urbanizatsiya ko‘lamining kengayishi, qurilish obyektlari maydonlaridan chang va qum zarralarining shamol orqali havoga ko‘tarilishi holatlari atmosfera havosining yomonlashishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, qonunchilikda atmosfera havosini muhofaza qilish talablari va shaharsozlik qoidalari doirasida aynan qurilishda changning havoga ko‘tarilishiga yo‘l qo‘yganlik uchun aniq javobgarlik nazarda tutilmagan.

Shundan kelib chiqib qonun loyihasi bilan qurilish maydonlarida atmosfera havosini muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun qurilish tashkilotlari mansabdor shaxslarining javobgarligini belgilash taklif etilmoqda. Bunda Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi mazkur huquqbuzarliklarni aniqlash va javobgarlikka tortishga mas’ul qilib belgilanmoqda.

Huquqbuzarlik qurilish maydonlarida vizual tarzda va “aspirator” uskunasi orqali havoning ifloslanishi, qurilish uchun belgilangan ozodalik normativlarga asosan aniqlanadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

### Atrof-muhitga oid masalalarda jamoatchilik ishtiroki kafolatlanadi

Majlisda “Atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to‘g‘risidagi konvensiyaga (Orxus, 1998-yil 25-iyun) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi haqida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda konseptual jihatdan ko‘rib chiqildi.

Konvensiya insonning sog‘lom atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini himoya qilishga sabab bo‘luvchi muhim xalqaro hujjat sanaladi. U tegishli davlat organlari, fuqarolar va ekologik nodavlat notijorat tashkilotlari (ENNT) o‘rtasida ekologik axborotdan foydalanish, ENNTning atrof-muhit va fuqarolarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan qarorlarni qabul qilishda fuqarolar ishtiroki bilan bog‘liq o‘zaro munosabatlarini tartibga solish, shuningdek, atrof-muhitga oid masalalar bo‘yicha odil sudlovdan foydalanish kabi qoidalardan iborat.

Qayd etilganidek, O‘zbekistonda bu borada qonunchilik asoslari yaratilgan. Konvensiya qoidalari Konstitutsiya, “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi va “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunlarda o‘z ifodasini topgan.

Deputatlarning ta’kidlashicha, mazkur qonun loyihasi fuqarolarning Konstitutsiyada belgilangan ekologik huquqlarini ta’minlashga, atrof-muhit bilan bog‘liq masalalarda jamoatchilikning ishtirokini yanada kafolatlashga, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi ijrosini ta’minlashga yo‘l ochadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

### Xalqaro hamkorlik yanada kuchaytirilmoqda

Majlisda “Umumjahon pochta ittifoqining Ustaviga O‘ninchi qo‘shimcha bayonnomani (Addis-Abeba, 2018-yil 7-sentabr) va O‘n birinchi qo‘shimcha bayonnomani (Abidjan, 2021-yil 26-avgust) ratifikatsiya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston 1994-yildan buyon Umumjahon pochta ittifoqining a’zosi sifatida uning faoliyatida faol ishtirok etib kelmoqda. Ayni vaqtda Umumjahon pochta ittifoqi 192 ta davlatni birlashtirgan.

Majlisda Umumjahon pochta ittifoqining Ustaviga O‘ninchi qo‘shimcha bayonnoma (Addis-Abeba, 2018-yil 7-sentabr) va O‘n birinchi qo‘shimcha bayonnomaning (Abidjan, 2021-yil 26-avgust) ratifikatsiya qilinishi O‘zbekiston uchun Umumjahon pochta ittifoqiga a’zo mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni samarali davom ettirish hamda xalqaro pochta almashinuvini tashkil qilish va amalga oshirishning umumiy tamoyillari asosida sifatli xizmatlarni barqaror rivojlantirish imkonini berishi qayd etildi.

Deputatlarning fikricha, Umumjahon pochta ittifoqining Ustaviga qo‘shimcha bayonnomalarni ratifikatsiya qilish ushbu xalqaro tashkilotda to‘liq asosda samarali ishtirok etish imkonini ham beradi. Shu bilan birga, boshqa davlatlarning belgilangan pochta operatorlari va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarida O‘zbekiston manfaatlarini o‘z vakolatlari doirasida himoya qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

### Strategik sheriklik munosabatlari yuqori darajaga ko‘tariladi

Majlisda “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qatar Davlati Hukumati o‘rtasida ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi Bitimni (Toshkent, 2024-yil 15-aprel) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Bitimda o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish, tovar aylanmasining barqaror o‘sishini ta’minlash, ikki mamlakat o‘rtasida transport logistika aloqalarini rivojlantirish, tizimli va uzoq muddatli asoslarda o‘zaro mahsulot va xizmatlar yetkazib berish hajmini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda ikki mamlakat o‘rtasida qo‘shma korxonalarni tashkil etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, ta’lim, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va madaniy meros, turizm, sport va yoshlar ishlari sohalarida ham aloqalarni yanada chuqurlashtirish nazarda tutilmoqda.

Deputatlarning ta’kidlashicha, ushbu Bitim har ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro ishonch ruhidagi do‘stona va strategik sheriklik munosabatlarini yuqori darajaga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

**“Xalq so‘zi”.**

**O‘zbekistonda har 1000 kishiga o‘rtacha 103 ta yengil avtomobil to‘g‘ri kelmoqda.**

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 12-dekabr

Kitob javoningizga

# ZAMONAVIY PARLAMENT – CHINAKAM XALQ UYI

*Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijadorligi, ularning real hayotdagi ro‘yobi parlament islohotlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, taniqli huquqshunos olim Abdumannob Rahimovning yaqinda nashr etilgan “Yangi O‘zbekistonda parlament islohotlari” deb nomlangan monografik asari ham nazariy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.*

Muallif o‘z tadqiqotida yangi O‘zbekistonda parlament islohotlari, uning rivojlanish istiqbollari, konstitutsiyaviy maqomi kabi masalalarni chuqur tahlil qilgan. Ayniqsa, parlament palatalarining keyingi yillardagi faoliyati har tomonlama o‘rganilganligi tadqiqotning qimmatini yanada oshirgan.

Kitobda haqli ravishda qayd etilishicha, so‘nggi yillarda konstitutsiyaviy islohotlar parlament maqomi va uning palatalari vakolatlarini sezilarli tarzda kengaytirdi, ularning hokimiyatlar bo‘linishi mexanizmidagi o‘rnini aniq belgilab berdi. Umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya parlament salohiyatini yanada aniqlashtirib, haqiqiy vakolatlar bilan boyitdi. Bu esa Oliy Majlisni qonun chiqaruvchi, vakillik va parlamentning vazifalarini ta’minlashga oid nazoratni to‘liq amalga oshiruvchi davlat organiga aylantirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratdi.




A. Rahimov o‘z kitobida Oliy Majlis faoliyatini alohida o‘rgangan. Oliy Majlisning vakillik funksiyasi, uning qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil funksiyalari mazkur masalalarga yangicha yondashuv asosida, bugungi kunda jahon parlamentarizmi amaliyotidagi eng muhim konseptual jihatlar bilan uyg‘unlikda o‘rganilgani asarning amaliy tomonlarini yanada kuchaytirgan.

Nazarimizda O‘zbekistonda parlament nazoratini tashkil etishda qator muammolar mavjud edi. Chunki huquqiy-me’yoriy jihatdan ta’minlanmaganlik, ayrim ma’muriy-byurokratik to‘siqlarning mavjudligi ushbu nazoratni amalga oshirishga xalaqit qilar edi. Bugungi kunga kelib ana shu to‘siqlar olib tashlandi. Kitobda qayd etilishicha, parlament nazorati funksiyasi parlament faoliyatining eng muhim va tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday funksiyaning maqsadi – ijro hokimiyati organlari faoliyatini to‘liq va har tomonlama nazorat qilish (kuzatish, tahlildan o‘tkazish, baholash, umumlashtirish va boshqalar). Ushbu funksiyani bajarish esa qonunlar talablariga rioya etilishini nazorat qilish va tekshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini yaratish va amalga oshirish, muammolarni aniqlash va bartaraf etish, konstitutsiyaviy vazifalar va vakolatlarning samarali bajarilishini ta’minlash uchun ijro hokimiyati organlari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni o‘z ichiga oladi.

Monografik asarning eng muhim jihatlaridan yana biri – Oliy Majlisning boshqa davlat organlari, xususan, mamlakat Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi bilan munosabatlari tizimining qay tarzda shakllanganligi va ularning ishlash mexanizmini ochib berishi bilan bog‘liq. Xususan, muallifning ta’kidlashicha, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda Prezidenti o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning mohiyati shundaki, ularning biri – qonun chiqarish, ikkinchisi – davlat boshlig‘i sifatida mamlakatimiz rivojlanishining istiqbollariga qaratilgan qonunchilik siyosatini, umumiy strategiyasini, huquqiy siyosatini, fundamental dasturiy hujjatlarini ishlab chiqish, hayotga joriy qilish va ijrosini ta’minlash orqali nihoyatda mas’uliyatli va muhim davlat hokimiyati funksiyalarini ado etadilar.

Asarda parlament va hukumatning o‘zaro munosabatlari masalasi ham keng tahlil qilingan. Bunday munosabat Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida parlamentning Vazirlar Mahkamasi hamda ijro hokimiyatining boshqa tuzilmalari ustidan parlament nazorati mexanizmlarini kuchaytirish nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Bunda hukumatni shakllantirish, uning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi (vakolatlari)ni belgilash, faoliyatini yo‘naltirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, Davlat byudjeti ijrosini ta’minlash va boshqa yo‘nalishdagi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishning nazariy, amaliy, tahliliy masalalari o‘rganilgan. Ushbu tizimni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar bayon qilingan.

Abdumannob Rahimovning asarida yangi O‘zbekiston sharoitida Oliy Majlis faoliyati samaradorligini yanada oshirish masalalariga keng e’tibor berilgani ishning ham ilmiy-nazariy, ham amaliy tomonlarini kuchaytirgan. Shu o‘rinda AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Shvetsiya kabi qator demokratik davlatlar parlamentlarining ish faoliyati, maqomi masalalarining qiyosiy-huquqiy asnoda tahlil etilgani maqsadga muvofiq bo‘lgan.

Fikrimizcha, parlament islohotlari doirasida Oliy Majlis palatalari o‘zaro munosabatlari mexanizmi samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini aniqlash ham eng muhim ilmiy va amaliy masalalar safiga kiradi. Kitob muallifi shu o‘rinda Oliy Majlis palatalari o‘zaro hamkorligining bir qator asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatgan.

Asarda normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, parlament amaliyotini yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiya etilgan takliflar A. Rahimovning tanlangan mavzu bo‘yicha yirik olim, yetuk mutaxassis ekanligidan dalolat beradi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 96, 81, 99-moddalarini yanada takomillashtirish bo‘yicha ilgari surilgan takliflar, nazarimizda parlament amaliyotining hayotiyligini ta’minlashga katta yordam beradi.

Ushbu asar mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etishning huquqiy-me’yoriy poydevorini mustahkamlash, jamiyat a’zolarining huquqiy madaniyatini oshirishda muhim rol o‘ynashi muqarrar. Biz bugun yurtimizda suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat barpo qilishga kirishgan ekanmiz, shubhasiz, jamiyatda ana shunday asarlarga ehtiyoj ortib boraveradi. Shu nuqtayi nazardan, A. Rahimovning “Yangi O‘zbekistonda parlament islohotlari” kitobini zamonaviy milliy parlament – tom ma’nodagi xalq uyini bunyod etish yo‘lidagi muhim qadam, deyish mumkin.

**Abduxalil MAVRULOV,**
**tarix fanlari doktori,**
**professor.**

# ILMIY YONDASHUVLAR

## hududlar taraqqiyotini ta’minlash imkoniyatidir

*Hududlarni kompleks rivojlantirish bilan bog‘liq dasturlar hamda loyihalar samaradorligi ularning ilmiy asoslanganiga bevosita bog‘liq. Shu bois ushbu jarayonlarda izlanish olib borayotgan ilmiy markazlar roli hamda ishtirokini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.*

*Natijada Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilayotgan tizimli omillarni aniqlash, barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, hududlarning iqtisodiy o‘sish drayverlarini belgilash, iqtisodiy loyihalar samaradorligini baholash, kambag‘allikni qisqartirish kabi yo‘nalishlarda iqtisodiy tadqiqot markazlari hamda oliy ta’lim muassasalarining ishtiroki sezilarli darajada oshdi.*

### Nuqtai nazar

#### Hududlar rivojida nimalarga e’tibor bermoq kerak?

Ilmiy-institutsional o‘zgarishlar boshqa tadqiqot markazlari singari Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va uning huzuridagi O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy yo‘nalishdagi faoliyatida fundamental tadqiqotlarni amaliy iqtisodiyotga yo‘naltirish imkoniyatini yaratdi.

Universitetda va ilmiy-tadqiqot markazida hududlarga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning umumiy hamda aniq yo‘nalishlari belgilab olindi.

Dastlabki bosqichda Toshkent viloyatining O‘rta Chirchiq tumanida qishloq xo‘jaligida barqaror o‘sishni ta’minlash, ekin maydonlarining ball boniteti va unumdorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi foydalanuvchilarining daromadlarini ko‘paytirish maqsadida takroriy ekin sifatida tuproq tarkibini yaxshilaydigan va serdaromad noan’anaviy o‘simliklar yetishtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Yangiyo‘l, Ishtixon va Pastdarg‘om tumanlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturiga ilmiy takliflar tayyorlandi.

Shuningdek, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzurida Toshkent shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish kengashi tashkil etildi va uning doirasida tuman hokimliklari bilan birgalikda tadbirkorlik subyektlari uchun ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni modernizatsiya qilish, yangi tarmoqlarni o‘zlashtirish, hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish bo‘yicha ko‘chma seminarlar o‘tkazib borilayotir.

Tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish salohiyatini oshirish, iqtisodiy o‘sishning qo‘shimcha drayverlarini aniqlash, tayyorlangan iqtisodiy loyiha va dasturlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish ishlari bajarildi. Bunda tumanlardagi mavjud tadbirkorlarning amaliy muammolari o‘rganilib, ularga ilmiy maslahatlar berildi, pirovardida tadqiqotlar darajasi oshdi, tadbirkorlar va tuman hokimlari bilan aloqalarni mustahkamlash imkoni paydo bo‘ldi, integratsion hamkorlik kuchaydi.

Ushbu ilmiy-integratsion aloqalar doirasida



universitet olimlari G‘ozg‘on shahrini iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi, jumladan, turizm infrastrukturasi (mehmonxona, umumiy ovqatlanish joylari, hunarmandchilikka oid milliy mahsulotlar uchun savdo majmualari) turizm marshrutlariga kiritilmaganligi sababli mavjud imkoniyatdan samarali foydalanilmasdan kelinayotganligi aniqlandi. Xususan, bu yerda Shohimardonota ziyoratgohi mavjud bo‘lib, uning hududida turistlar e’tiborini tortadigan 2 ta chashma va 7 ming yil avval qoyatoshlarga bitilgan 20 dan ortiq petrogliflar mavjudligidan kelib chiqib, shaharning turizm salohiyatini oshirish, ichki va xorijiy turistlar oqimini ko‘paytirish imkoniyati mavjudligi asoslandi.

#### “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi – amalda

Hukumatimiz tomonidan ilmiy yondashuvlar asosida kambag‘allikni qisqartirish yuzasidan mahallalar kesimida ilmiy tadqiqotlar olib borish yuklatilgan edi. Shundan kelib chiqqan holda qisqa vaqt davomida Termiz, Uzun va Sariosiyo, shuningdek, Shahrisabz, Ko‘kdala va Chiroqchi tumanlari mahallalarida ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Bunda asosiy e’tibor “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha aholi turmush sharoitini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, yettita imkoniyat va mas’uliyat tamoyili asosida kambag‘al oilalarning sharoiti hamda mahalla hududidagi tadbirkorlik subyektlariga qaratildi, kambag‘al oilalarning tomorqadan foydalanish darajasi, ijaraga olingan ekin maydonlaridan foydalanish holati, mehnat resurslari tarkibi tahlil qilindi.

Mahalladagi kambag‘al oilalar farzandlarining maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun mehnat qilish imkoniyatini cheklovchi omillar, aholi tomorqalarining sug‘orish tizimi bilan ta’minlanganligi, ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilma holati tahlili amalga oshirilib, ular ish faoliyatini yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi hamda mahallalarda yashash sharoiti og‘ir bo‘lgan xonadonlar ro‘yxati shakllantirilib, turmush tarzini yaxshilash bo‘yicha xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda takliflar berildi.

Zangiota va Toshkent tumanlarining iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini yanada ko‘paytirishga oid ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra Jahon savdo tashkilotining talablari va tavsiyalarini inobatga olgan holda Zangiota tumanidagi tadbirkorlarni rivojlangan davlatlar bozorlariga mahsulotlarni eksport qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, tuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining diagnostik indikatorlari va tegishli dasturiy ta’minoti ishlab chiqilishi, geografik axborot tizimlari (GIS) texnologiyasi asosidagi interfaol axborot-tahliliy elektron xaritasini yaratish ishlari olib borilmoqda.

#### Amaliy tavsiyalar shakllantirildi

Hududlarni rivojlantirish, ularning o‘sish drayverlarini aniqlash, mavjud salohiyatdan yanada samarali foydalanish bo‘yicha mahalliy hokimliklar bilan o‘zaro ilmiy hamkorlik yo‘nalishlari ishlab chiqildi.

*Birinchi yo‘nalish*, bu – hududning demografik kartasini shakllantirish. Bunda tadqiq qilinadigan hudud aholisi o‘sish darajasining prognozi ishlab chiqiladi. Unga asoslangan holda ishsizlik va kambag‘allikni kamaytirish maqsadida ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirish, birinchi navbatda, talab etiladigan iste’mol tovarlari, suv, energiya, ta’lim, sog‘liqni saqlash xizmatlari va muhandislik infratuzilmalariga bo‘lgan talablarning prognoz ko‘rsatkichlari yaratiladi. Hududning tabiiy o‘sish darajasi va sotsial-iqtisodiy rivojlantirish ko‘rsatkichlarining bog‘liqligini ta’minlash muhim hisoblanadi.

*Ikkinchi yo‘nalish* – tadbirkorlik subyektlarida risk tahlilini amalga oshirish. Chunki mavjud tadbirkorlik subyektlarining aksariyatida, jumladan, tumanlarda faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarida risk tahlili deyarli amalga oshirilmasligi tufayli to‘satdan bankrotlik holatiga tushib qolmoqda. Shu bois tadbirkorlarning faoliyatini risk bo‘yicha tahlil qilish, iqtisodiy va moliyaviy xavflarni baholash, ularni yumshatish hamda oldini olish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqiladi.

*Uchinchi yo‘nalish* sifatida respublika hududlarining iqtisodiy va resurs salohiyatini har tomonlama o‘rganish, ishlab chiqarish kuchlarining hududiy taqsimlanish darajasini tahlil etish tavsiya qilinmoqda.

Bunda har bir hududning mavjud iqtisodiy va mehnat resurslari baholangan holda qaysi hududda qaysi ishlab chiqarishni tashkil etish, ular tomonidan ishlab chiqariladigan tovar (xizmat, ish)larga bo‘lgan talab o‘rganilib, iste’mol bozori bilan muvofiqlik muammolari ko‘rib chiqiladi.

*To‘rtinchi yo‘nalish*da esa Jahon savdo tashkilotiga kirishga tayyorgarlik doirasida O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishi bilan yuzaga keladigan turli yo‘nalishdagi iqtisodiy xavflar baholanadi, ularni yumshatish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Xullas, tahlil o‘tkazilgan tumanlarda aholini kambag‘allikdan chiqarish, iqtisodiy jihatdan og‘ir oilalarga qo‘shimcha daromad manbalari topish bo‘yicha bir qator ilmiy-amaliy tavsiyalar shakllantirildi. Masalan, mahallalarning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ish o‘rinlarini yaratishga e’tibor berish. Tabiiyki, bunday holatda ish bilan ta’minlanish yuqori darajada bo‘ladi.

Yoki ayrim mahallalar aholisida qanday mahsulotni yetishtirish samarali ekanligi haqida ma’lumot va tushuncha yetarli emas. Shu bois ham ularga dehqonchilik ko‘nikmasini rivojlantirish, mahsulotlarini qulay narxlarda va oson sotish mumkin bo‘lgan jihatlar bo‘yicha ilmiy maslahatlar berildi. Ayrim toifadagi, asosan, kambag‘al toifaga kiruvchilarga bank krediti ajratishdan ko‘ra, hokimliklar tomonidan mahalliy byudjetlarning prognoz ko‘rsatkichlaridan oshirib bajarilgan qismi hisobidan subsidiyalar ajratish iqtisodiy jihatdan samara berishi ilmiy asoslab berildi.

Bundan tashqari, bugungi kunda ayrim kambag‘al toifadagi aholining mavjud ekin maydoniga ishlov berish (asosan, haydash, tekislash)ga moliyaviy imkoniyati va mehnat resurslarining yetarli emasligi aniqlandi. Shu bois tumanlardagi Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashini moliyaviy subsidiyalash asosida ular tomonidan bu xizmatlarni bepul amalga oshirish mexanizmini ishga tushirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot olib borilgan ayrim mahallalar yoshlarini ish bilan ta’minlash, ularning kambag‘al toifaga tushib qolishining oldini olish ham e’tibor markazimizda bo‘ldi. Buning uchun viloyatdagi mavjud oliygohlar va boshqa tajribali mutaxassislar ishtirokida “Biznesga birinchi qadam” loyihasi doirasida biznes ko‘nikmalarni shakllantirish, mahallaning iqtisodiy o‘sish drayver sohasi yo‘nalishidan kelib chiqqan holda biznesga yo‘naltirishni tashkil qilish zarurligi ilmiy asoslab berildi.

Xulosa o‘rnida aytganda, iqtisodiy tadqiqot markazlari va oliygohlar faoliyatidagi bunday tub burilish yangi ilmiy tadqiqot obyektlari paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu esa ilmiy markazlarning mamlakatimizda izchillik bilan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarda bevosita ishtirokini oshirdi, nazariya bilan amaliyotni bir-biriga yaqinlashtirdi.

**Sadirdin XUDOYQULOV,**
**O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy-tadqiqot markazi direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.**

Omilkorlik



# FERMER ELEKTR ENERGIYA HAM YETKAZIB BERADI

*Mingbuloq tumanida faoliyat yuritayotgan “Humoyun Xurshid dalasi” fermer xo‘jaligi, asosan, moyli ekinlar parvarishi bilan shug‘ullanadi. Uning 14 gektar maydondagi kungaboqar va poliz ekinlarida ekologik sof iste’mol yog‘i ishlab chiqarish uchun sara urug‘lar yetishtiriladi.*

E’tiborlisi, joriy yilning o‘zida qayta ishlash korxonasiga 7 tonnadan ziyod xomashyo topshirilib, 60 million so‘mlikdan ko‘proq sof daromad olindi.

Izlanuvchan tadbirkor birgina yo‘nalish bilan cheklanib qolmasdan yaqinda xo‘jaligiga yangi tarmoq qo‘shish bo‘yicha loyihani nihoyasiga yetkazdi. Dala chetidagi 8 sotix maydonga joylashtirilgan quyosh panellaridan iborat minifotoelektr stansiya bir necha hafta avval dastlabki kilovattlarni hosil qilishga kirishdi.

– 450 million so‘m qiymatga ega 180 ta panel kuniga 100 kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega, – deydi fermer Usmonjon Abduxoliqov. – Loyihani avvaliga o‘z ehtiyojimiz, ya’ni nasos agregatlarini quvvatlantirishga mo‘ljallagandik. Qarasak, yaxshigina biznes qilsa bo‘lar ekan. Endi xo‘jaligimizdan ortgan kilovattlarni davlatga sotyapmiz.

Tadbirkorlik subyekti ayni yo‘nalishda “Namangan hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati bilan shartnoma imzoladi. Unga ko‘ra yil davomida davlatga 255,5 ming kilovatt elektr energiyasi yetkazib beriladi. Bu – 233 million so‘m mablag‘, demak.

“Qalovini topsa, qor ham yonadi”, deganlari shu-da.

**Qudratilla NAJMIDDINOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# Zarinaning mehr sabog‘i

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti defektologiya fakulteti talabasi Zarina Xoliqova bir necha yillardan buyon o‘z xonadonida tayanch harakat a’zolari, nutq, eshitish sohasida nuqsoni bor bolalar uchun qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazib keladi.*

### Ezgulik

O‘tgan davr mobaynida asosiy o‘qitish jarayoniga qo‘shimcha inklyuziv ta’lim samarasi natijasida o‘nlab bolalarning nutqi ravon bo‘lib, o‘qish, yozishni o‘rgandi. Ular hozirda tengdoshlaridan ajralmagan holda maktabda o‘qiyapti. Shu tariqa imkoniyati cheklangan o‘g‘il-qizlarga tengdoshlari qatori ta’lim-tarbiya olishiga ko‘maklashilmoqda.

– Bunday yoshlar bilan ishlashda har bir bolaga o‘ziga xos yondashuv talab etiladi, – deydi Zarina Xoliqova. – Shu bois o‘qitish qo‘shimcha mashg‘ulotlar belgilangan inklyuziv ta’lim dasturi doirasida olib boriladi. Ishonamanki, bu bolajonlar kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topadi.

O‘quvchilar murakkab jarrohlik amaliyoti o‘tkazganlardan, bog‘cha yoshidagi, umuman, 13 yoshgacha bo‘lgan bolalardan tashkil topgan. Z. Xoliqova ular bilan har kuni qo‘shimcha shug‘ullanib, bilim va amaliy ko‘nikmalarini ham oshirib boradi.

Aytish joiz, Zarina Xoliqova o‘z xonadonida qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazishdan tashqari surdotarjimonlik va surdopedagoglik bilan ham shug‘ullanadi.

**Botir MADIYOROV**
**(“Xalq so‘zi”).**

**17 – 20-dekabr kunlari Toshkent shahrida “Jadidlar izidan” tanlovining respublika bosqichi bo‘lib o‘tadi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-2142. 10 908 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Soyibnazarov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.10 Topshirildi — 00.00 1 2 3 4 5 6